

SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi

Xalqaro Nordik Universiteti

Chet tillari kafedrası

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sinxron tarjimonlarni tayyorlash jarayonidagi muammolar, ularni tayyorlash va kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha nazariyalarni o'z ichiga oladi. Maqolada asosan, ushbu jarayondagi muammolar, ularga yechim topish va jarayonga tayyorlanish bo'yicha nazariyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimonlarning kompetentligini oshirish uchun klassifikatsiyalangan mashqlar to'plami taklif qilinadi. Tadqiqot ishi nazariy va amaliy metodlar asosida yoritilgan. Tadqiqot so'nggida kompetentlikni oshirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: Sinxron tarjima, kompetensiya, kompetentlik, tarjima kompetensiyasi, o'zbek tili, ingliz tili, xotira, diqqatni oshirish, mashqlar.

KIRISH

Sinxron tarjima boshqa tarjima turlaridan biroz murakkabroq bo'lib, u nafaqat nazariy balki amaliy jihatdan ham mukammal tayyorgarlik ko'rish, o'qish va izlanishni talab qiladi. Sinxron tarjima o'qitiladigan muassasalarda o'rganuvchilarni tarjima jarayoniga tayyorlash uchun o'zbek va ingliz tillaridagi nazariy o'quv qo'llanmalar va kitoblar ko'p bo'lishiga qaramay, ularni jarayonga amaliy jihatdan tayyorlash uchun qo'llanmalar soni kamchilikni tashkil etadi. Chunki sinxron tarjimoni amaliy o'qitish murakkab jarayon hisoblanadi. Sinxron tarjimon kompetensiyasini rivojlantirish uchun ular ikki tilda ham doimiy tinglash, xotirani rivojlantirish va uzluksiz sinxron tarjima bilan shug'ullanish kabi bir qator tayyorgarliklarni amalga oshirishlari kerak bo'ladi. Mavzu tahliliga o'tishdan oldin, avvalambor, kompetensiya va kompetentlik nazariyalariga to'xtalib o'tish zarur. Nafaqat tarjima sohasida, balki boshqa sohalarda ham "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari mavjud bo'lib, ba'zi tadqiqotchilar mana shu ikki tushuncha deyarli farq qilmaydi desa, ba'zilar ularning orasida katta farq bor deya ta'rif beradi. Tarjima kompetensiyasiga keladigan bo'lsak, bu borada berilgan ta'riflar keskin farq qilmaydi. Kalina tarjima kompetensiyasiga "Ikki tilli muloqot vaziyatida ayniqsa bir qator tarjimonlar jamoasi oldida kognitiv vazifani yuqori darajadagi e'tibor bilan samarali va sifatli holda amalga oshirish" deya ta'rif beradi¹. Pochhaker, Heyl, Korsellis, Gillies va Meng ham tarjimoni amalga oshirish, unda kerak bo'ladigan qobiliyat va ko'nikmalar, ya'ni tarjima kompetensiyasi borasida shunga o'xshash ta'rif berishgan². Birinchi marta paydo bo'lganidan

¹ Kalina, S. (2000). Interpreting competences as a basis and a goal for teaching.

²Oraki, A., & Tajvidi, G. R. (2020). Simultaneous interpreting competence: A case study. *Iranian Journal of*

boshlab, tarjimada kompetensiya qizg'in mavzuga aylangan. Ayniqsa, 1990-2000-yillardagi tadqiqotchilarning asosiy tadqiqot obyekti hisoblangan. Bunga Shafferner va Adablarning 2000-yilda yozilgan "Developing Translation Competence" kitobi yaqqol misol bo'lishi mumkin³. Mana shu tushuncha paydo bo'lgan davrdan beri tadqiqotchilar, tilshunos va tarjimonlar tarjimon kompetensiyasini shakllantirish va uni klassifikatsiya qilishda o'zlarining tarjima kompetensiyasi modellarini taklif qilishgan. Bu kabi tadqiqotchilarga Vills (1976), Delisle (1980), Bell (1991), Gile (1995), Biby (1996), Neubert (2000), Shaffner (2000), Pim (2003), Kelli (2005), Gopferich (2009)⁴ larni misol qilib keltirish mumkin.

O'rganilgan adabiyotlar va manbalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, sinxron tarjimon kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim:

- Tarjima tillarini (ikki yoki undan ortiq) mukammal bilish, undagi eng ko'p ishlatiladigan iboralar, so'z birikmalari hamda terminologiyani yaxshi o'rganish va doimiy ravishda kuzatib borish;
- Barcha sohadagi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lib borish (chunki sinxron tarjimon turli sohalarda tarjimani qilishiga to'g'ri kelishi mumkin);
- Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sinxron tarjima jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalaridan foydalanishni to'liq bilish;
- Har bir soha bo'yicha o'z glossariysiga ega bo'lish;
- Kundalik ravishda sinxron tarjima qilish, uni yozib olib o'z xatolarini tinglash va xatolarni tuzatish ustida ishlash;
- Psixologik jihatdan doim sinxron tarjima jarayoniga tayyor bo'lish va kerak bo'lganda barcha muammolarni unutib bor diqqatni tarjimaga qarata olish;
- O'zini-o'zi nazorat qila olish, vaqtni to'g'ri taqsimlash hamda tinimsiz o'z ustida ishlay olish;
- Har bir tarjima yoki tayyorlovdan keyin o'zini baholash, kamchilik va yutuqlarni bilgan holda ularni to'g'rilay olish;
- Jismonan sog'lom bo'lish, ayniqsa xotirani rivojlantirish va xotira pasayib ketmasligi uchun sog'lom turmush tarziga amal qilish (xotira sinxron tarjima uchun katta ahamiyatga ega);
- Stressga chidamli bo'lish, kerak bo'lganda kuchli bosim ostida uzoq vaqt ishlashga tayyor bo'lish, agar kamchilik sezilsa, o'zini shunga tayyorlash;
- O'z diqqatini boshqara olish, kerak bo'lganda diqqatni bir joyga jamlay olish va bir vaqtning o'zida birdan ortiq vazifani bajara olish qobiliyatiga ega bo'lish va uni doimiy ravishda rivojlantirish ustida ishlash.

Yuqorida sinxron tarjimon kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tildi. Berilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan, ularni umumlashtirgan va turli tilshunosh-tarjimonlarning bu boradagi fikrlarini o'rgangan holda sinxron tarjimon kompetensiyasini oshirish uchun ishlatiladigan amaliy mashqlarni quyidagi kategoriyalarga ajratish taklif qilinadi:

I. Xotira va nutqni rivojlantiradigan mashqlar. Xotira tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. Sinxron tarjimon qisqa va uzoq muddatli xotirani o'stirish va uning ustida ishlash

Translation Studies, 17(68), 37-56.;

³ Oraki, A., & Tajvidi, G. R. (2020). Simultaneous interpreting competence: A case study. *Iranian Journal of Translation Studies*, 17(68), 37-56.

⁴ Oraki, A., & Tajvidi, G. R. (2020). Simultaneous interpreting competence: A case study. *Iranian Journal of Translation Studies*, 17(68), 37-56.

zarur. Qisqa muddatli xotirada ma'lumotlar 15-30 sekundgacha saqlanadi va u to'g'ridan to'g'ri sinxron tarjimani amalga oshirish jarayonida kerak bo'ladi. Uzoq muddatli xotirada esa ma'lumotlar hatto insonning umri so'ngigacha ham saqlanishi mumkin. Ushbu xotira tarjimonga umumiy bilimlarni saqlashda kerak bo'ladi. Shuningdek, nutq ravonligi hamda uning yoqimli va tushunarli bo'lishi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, xotira va nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi:

1. O'zbek va ingliz tillarida tez aytishlar yodlang va ularni nutqni tezlashtirgan holda qaytaring;

2. Turli kategoriyaga kiradigan so'zlar ro'yxatini shakllantiring hamda unga nutqni iloji boricha tezlashtirgan holda iloji boricha ko'proq ta'rif bering (ushbu mashqni ikki til juftligida ham qaytarish zarur). Masalan: kompyuter, daftar, tabiat, ilon, quvonch, quyon. Quyon- uzun quloqli, tishlari bor, odatda oq, qora va kulrang rangdagi quruqlikda yashaydigan sabzisevar hayvon. Ushbu mashqni teskarisiga ham bajarish mumkin. Ya'ni, bunda berilgan tayyor ta'rifni o'qish va kerakli so'zni topish kerak bo'ladi. Masalan: Oliy ta'lim muassasasini boshqaradigan shaxs- rektor;

3. Ushbu mashqning bir necha ko'rinishi mavjud. Avvaliga, o'qituvchi yoki talaba tomonidan bir nechta so'z aytiladi, ikkinchi talaba esa uni ketma-ketligini saqlagan holda aytib berishi lozim. So'zlar soni, talabaning imkoniyatiga qarab oshirib boriladi. Ushbu mashq yaxshi o'zlashtirilgandan so'ng, xuddi shunday so'zlar ro'yxati aytiladi, ammo bu safar talaba so'zlarning o'zini emas, ularning tarjimasini ketma-ketlikni saqlagan holda qaytarishi kerak bo'ladi. Mashqning boshlang'ich qadamlarini yaxshi eplayotgan talaba uni yanada qiyinlashtirish uchun so'zlar ro'yxatini 1 dan boshlab sanagan holda, undan-da qiyinlashishini xohlaganda esa so'zlar uzunligiga qarab 50 dan yoki 100 dan ortga qarab sanab eslab qolishi va aytib berishi mumkin. Xuddi shu mashq so'zlar bilan emas, matn bilan ham amalga oshirilishi mumkin;

4. O'zbek va ingliz tilidagi matnni tinglab yuring, matn tugagandan so'ng undagi sanalar, raqamlar, ismlar, joy nomlari va shu kabi asosiy ma'lumotlarni yoddan ayting. Matn hajmi eslab qoluvchining imkoniyatiga qarab tanlanadi va oshirib boriladi;

5. O'zbek va ingliz tilidagi qisqa matnni eshiting va undagi so'zlarni, ma'lumotlarni tushirib qoldirmagan holda qaytarib ayting;

6. O'zbek va ingliz tilidagi katta matn yoki nutq parchasini oling hamda uni nutqni tezlashtirgan holda ovoz chiqarib o'qing;

7. O'zbek va ingliz tilidagi har xil gaplarni hissiyotni o'zgartirgan holda talaffuz qilib ko'ring. Masalan: "Ishlaringiz qalay?" gapini qiziqish, neytral, qo'rquv, g'azab va ikkilanish ohangida talaffuz qiling. Ushbu mashq tarjima mobaynida nutqni yanada tiniq va hissiyotlarni to'g'ri yo'naltirgan holda tarjima qilishga yordam beradi. Xuddi shu ravishda matnlarni ham turlicha hissiyotni aks etgan holda o'qish mumkin.

II. Diqqatni oshirish va bo'lishga yordam beruvchi mashqlar. Diqqatni bir vaqtning o'zida ikki narsaga chalg'ita olish sinxron tarjima jarayonida birdan ortiq vazifa, ya'ni nutqni tinglash, tahlil qilish, tarjima qilish hamda bir vaqtda uni aytish vazifalarini bajarishda yordam beradi. Diqqatni oshirish esa ma'lumotlarni o'tkazib yubormaslik hamda sergaklikni saqlash uchun kerak bo'ladi. Diqqatni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar taklif qilinadi:

1. Kundalik hayotda, uyda, ko'chada va o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida ikki vazifani bajaring va diqqatni ikki narsaga jamlashga harakat qiling. Mana shu diqqatni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan dastlabki mashqlardan biri hisoblanadi. Bunga yaqqol misollardan biri musiqa eshitib konspekt qilish, kino ko'rib ovqat tayyorlash yoki boshqa yumushni bajarishdir;

2. Shadowing mashqi. "Shadow" inglizchada soya degan ma'noni anglatadi. Shadowing mashqlarini o'zbek tilida ortidan qaytarish deb tarjima qilish mumkin. Ushbu turdagi mashqlar bir vaqtning o'zida ikki vazifani bajarish, tinglash hamda tushunish qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning uchun biror audio manba olinadi va uni so'zlovchining ortidan bir necha soniya ortda qolgan holda baland ovozda qaytariladi. Nutqning baland ovozda qaytarilishi mashqning muhim jihati, chunki tarjimon bu jarayonda bir vaqtning o'zida boshqa matnni eshitish va o'z ovozidan chalg'imaslikni o'rganadi. Matn turi va qiyinlik darajasi imkoniyatdan kelib chiqib tanlanadi;

3. Shadowing mashqini bemalol bajarayotgan tarjimon jarayonni qiyinlashtirish uchun bir parcha qog'ozga 1 dan 100 gacha yoki 100 dan 1 gacha bo'lgan raqamlarni yozgan holda bajarishi ham mumkin;

4. Shadowing mashqini yanada qiyinlashtirish uchun biror matn parchasini qo'lda ko'chirgan holda bajarib ko'rish mumkin. Shadowing mashqi amalga oshirilayotgan til va ko'chirilayotgan matn bir tilda bo'lishi va yozilayotgan matn yoddan emas, ko'chirib yozilishi muhim.

III. Tushunish va tahlil qilish bo'yicha mashqlar. Ushbu mashqlar sirasiga tilni tushunish, uni rivojlantirish, tarjimonning umumiy va soha bo'yicha bilimlarini, tarjima qilish qobiliyatini oshirish bo'yicha mashqlar kiradi va ular quyidagicha:

1. Til bilish darajasini oshirish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun kundalik hayotda turli sohadagi audio manbalar, videolar va nutqlarni eshitib yurish kerak;

2. Muntazam ravishda, o'qishda yoki uyda turli matnlarni eshitish va ularni ovoz chiqarib tarjima qilib borish lozim. Ushbu mashq sinxron tarjima uchun kerakli bo'lgan so'zni topolmay qotib qolish, uni unutib qo'yish, hayajonlanish va tajribasizlikning oldini oladi;

3. O'zbek yoki ingliz tilidagi matnni eshitgan holda undan iloji boricha ko'proq ma'lumot yozib oling;

4. O'zbek va ingliz tillaridagi iboralar, frazeologik birliklarni jamlang, ularni yod olib, ba'zi qismlarini tushirib qoldirgan holda to'ldirishni mashq qiling;

5. O'zbek-ingliz, ingliz-o'zbek tillarida turli so'zlar, iboralar, frazeologik birliklar ro'yxatini shakllantiring va ularni iloji boricha tezroq tarjima qiling;

6. O'zbek va ingliz tillarida eng ko'p uchraydigan so'zlar ro'yxatini shakllantiring, ularga sinonim va antonimlar topib yoddan ayting;

7. Ko'p xonali sonlar ro'yxatini shakllantiring. Bunda bir kishi matnni o'zbek tilida o'qib turadi, boshqa kishi esa ularni iloji boricha tez va baland ovozda tarjima qilishi kerak. Xuddi shu yo'sinda matn ingliz tilida o'qiladi, boshqa kishi esa uni o'zbek tiliga tarjima qilishi lozim;

8. O'zbek va ingliz tillaridagi eng ko'p ishlatiladigan so'z birikmalari ro'yxatini shakllantiring. So'ng so'z birikmalarning bir qismi tushirib qoldiriladi. Tarjimon esa uning davomini topib iloji boricha tezroq aytishi kerak bo'ladi. Ushbu mashq matnni tushunish va oldindan bashorat qila olishga xizmat qiladi;

9. O'zbek yoki ingliz tilidagi matnni oling va uning dastlabki qismini o'qing. Tarjimon uni ma'nosidan kelib chiqqan holda o'zi davom ettirishi kerak bo'ladi. So'ng, bashorat to'g'ri yoki xato chiqqanligi tekshiriladi. Xuddi shu mashqni sarlavhalarni o'qish va uning nima haqida ekanligini bashorat qilish orqali ham davom ettirish mumkin;

10. Nutqni boshlash va uning ochilishini tushunarli qilib yetkazib berish qiyin vazifalardan biri. Mana shu holatning oldini olish uchun, o'zbek va ingliz tillaridagi turli nutq ochilishi qoliplari bilan tanishib, ularni yod olish sinxron tarjimon uchun muhim hisoblanadi;

11. O'zbek yoki ingliz tilidagi matnni oling, avval undagi gaplarni o'qing, so'ng gapning ma'nosini yo'qotmagan holda xuddi shu gapni qisqartirib ayting. Ushbu mashqni bajarish

gaplarni oson va qisqa bo'lishiga, o'z-o'zidan sinxron tarjima jarayonining osonlashishiga yordam beradi;

12. O'zbek yoki ingliz tilidagi matnni eshitib turib ayni vaqtning o'zida o'sha matnning ma'nosini saqlab gaplarni qisqartirgan holda sinxron qaytaring. Ushbu mashq bir tilni o'zida bajariladi. Ya'ni gaplar shunchaki qisqartiriladi, tarjima qilinmaydi. Bundan keyingi bosqich esa sinxron tarjima bo'ladi. Ya'ni bu mashq talabalarni sinxron tarjimaga tayyorlaydi;

13. Uzun va murakkab gapli matnlarni ma'noli qismlarga bo'lib chiqishni og'zaki, qiyin bo'lsa avval yozma so'ng og'zaki holda mashq qiling. Ushbu mashq tarjimonlarning qiyin matnlarni qismlarga ajratishlariga va oddiy gapga aylantirgan holda osonroq tarjima qilishlariga yordam beradi;

14. Istalgan matnni sinxron tarjima qiling va uni yozib oling. So'ng, tarjimani eshitib xatolaringizni toping va to'g'ri variantni ayting. Ushbu mashq xatolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi. Chunki inson boshqalarnikidan ko'ra o'z xatolaridan yaxshi xulosa chiqara oladi va o'z tarjimasidagi xatolarni eshitganida uni qaytarmaslikka harakat qiladi.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan strategiyalar sinxron tarjimonlar kompetensiyasini oshirishga katta xizmat qiladi. Bu jarayonda, eng muhimi, ularni to'liq, ko'rsatmalarga amal qilgan holda hamda uzluksiz ravishda bajarishdir. Taklif qilingan barcha mashqlarni bajarish jarayoni ularni shunchaki bajarish emas, ma'lum va kerakli miqdorda, shartlarga amal qilgan holda bajarish muhimdir. Mashqlar miqdoriga keladigan bo'lsak, bu har bir tarjimonning qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib ko'proq yoki kamroq bo'lishi, ozroq yoki ko'proq vaqt olishi mumkin. Ushbu tadqiqot ishida sinxron tarjimonlarni tayyorlash yoki mustaqil tayyorlanish jarayonida bajarilishi kerak bo'lgan mashqlar kategoriyalarga ajratilib, batafsil tushuntirib o'tildi. Yuqorida berib o'tilgan ko'rsatmalarga amal qilinsa, tarjimonlarda quyidagi kompetensiyalar to'liq shakllanadi:

- Qisqa vaqtda, bosim ostida sinxron tarjima strategiyalaridan avtomatik foydalana olish;
- Ikki til doirasida o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni boshqa istalgan tilga ham joriy etish;
- Kelajakda mustaqil ravishda o'z ustida ishlash va sinxron tarjima ko'nikmasini oshirish;
- Murakkab nutqlar va davomi mavhum matnlar bilan ishlash, gapning davomini ortiqcha qiyinchiliksiz bashorat qila olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kalina, S. (2000). Interpreting competences as a basis and a goal for teaching.
2. Oraki, A., & Tajvidi, G. R. (2020). Simultaneous interpreting competence: A case study. *Iranian Journal of Translation Studies*, 17(68), 37-56.
3. Raxmetullayevna, K. M., Mukhsumovna, S. M., & Nizametdinovna, N. M. (2020). Simultaneous transfer strategies and their description. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 217-220.
4. Yo'ldoshev, U. R. (2021). Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. *Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti*.
5. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.